



INNOVATIONS TECHNOLOGIES SUPPORTING INITIAL GRADE TEACHERS' CREATIVE ACTIVITY DEVELOPMENT

Xolboyeva Dilnoza Shopo'lat qizi

TDPI Initial grade education faculty Initial grade education
theory and methodology 1st-year magister

Tel: +998 93 226 21 12

xolboyevadilnoza5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalangan holda rivojlantirish yo'llari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinflar, ijodiy faoliyat, innovatsion texnologiyalar, o'qituvchi, o'quvchilar

Abstract: This article provides information about the ways in which the creative technologies of elementary school students can keep up with modern techniques and technology.

Key words: primary classes, creative activity, innovation technologies, teacher, students



Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Dars jarayonida o'qituvchilar o'z fanlari doirasida, bilim ,ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar, texnologik qurilmalar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Mashg'ulotlarni o'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, birgalikda guruh bo'lib ishlashi, jamoa orasida fikrlarini bildirishlari, yakka holda izlanishlari hamda o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Bu jarayonda o'qituvchining dars mashg'ulotini o'quvchilarga to'g'ri , oson, va tez yetqazib berishi hamda ularning jarayonga to'g'ri munosabat bildirishlariga yo'l ko'rsatishi muhimdir. O'quvchilarni ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'qituvchining dars mashg'ulotini turli pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil qilishi va texnologiyalardan foydalanishga undashi, o'quvchilar ruhiyatida fanga bo'lgan qiziqishidan kelib chiqib darsni o'yinlar vositasida tashkil qilishi kerak. Tanlangan o'yin turi ta'lim hamda tarbiyaviy jihatidan o'quvchini tarbiyalab borishi ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni o'z holicha o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. An'anaviy ta'lim va zamonaviy ta'lim tizimining bir-biridan farqli jihati shundaki; an'anaviy ta'limda faqatgina o'qituvchi izlanib, dars jarayonlarida bir xillik kuzatilgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda esa o'qituvchining faoliyati bilan birgalikda o'quvchilar faoliyati ham rivojlanib



bormoqda . Interfaol metodlardan foydalanib darsni tashkil qilish mashg'ulotni doimiy bir xillikdan qutqaradi, o'quvchilarni sergaklikka chorlaydi, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi hamda mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross o'yinlarni tizimli o'rganishga harakat qilgan bo'lsa, nemis psixologi K.Byuller o'yinlarni «qoniqish hosil qiluvchi» faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyevlar fikricha, o'yinlarni nazariy jixatdan ijtimoiy tabiatiga ko'ra ma'lum faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan bog'lab, tadqiq etgan bo'lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatliligidir.

Maktab yoshi - bu bolaning psixologik rivojlanishining, barcha aqliy funktsiyalarning, jismoniy madaniy hatti-harakatlarining jadal rivojlanishi, murakkab faoliyatni shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarning asoslarini shakllantirish, motivlar va ehtiyojlar, axloqiy me'yorlar, o'z-o'zini hurmat qilish, xatti-harakatlarni ixtiyoriy tartibga solish elementlarining muhim bosqichidir. Ijodkorlik - bu insonning xarakteri, qiziqishlari va qobiliyatlari bilan bog'liq murakkab aqliy jarayon. Tasavvur uning diqqat markazida. Inson o'z ishida olgan yangi mahsulot ob'ektiv (ijtimoiy ahamiyatli kashfiyot) va sub'ektiv ravishda yangi (o'zi uchun kashfiyot) bo'lishi mumkin. Ijodiy jarayonning rivojlanishi, o'z navbatida, tasavvurni boyitadi, bolaning bilimlari, tajribasi va qiziqishlarini kengaytiradi, hayotga bòlgan qarashlarini rivojlantiradi. Ijodiy faoliyat bolalarning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, xotira, fikrlash kabi yuqori aqliy funktsiyalarni yanada maqbul va intensiv rivojlanishiga hissa qo'shadi. . Ijodiy faoliyat bolaning shaxsiyatini rivojlantiradi, fikrlash qobiliyatini o'stiradi, unga axloqiy va axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ijodkorlik asarini yaratishda bola ularda uning hayotiy qadriyatlari, shaxsiy fazilatlari haqida tushunchasini aks ettiradi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar san'at bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radilar. Ijodiy faoliyati kengayib borgani sayin boshlang'ich sinf



o'quvchilari mavjud tushunchani, fikrni hayot bilan bog'lashga, uni to'g'ri anglashga harakat qila boshlaydi. Har qanday soha bo'lmasin boshlang'ich sinf o'quvchilari unga o'z yoshi, bilimidan kelib chiqib yondashadi. O'quvchilarning ijodiy faoliyati rivojlantirishida nafaqat maktabdagi o'qituvchining, balki uyda berilgan vazifalarni ota-ona bilan qanchalik darajada ijodiy ishlashlari ham muhimdir. Chunki o'qituvchi ijodiy ishlashga o'rgatsa ham uni bola ozi erkin bajarishi uchun maktabda vaqt kamlik qiladi. Shuning uchun ham bolaning ijodiy rivojlanishida ota-onaning ham o'rni bor. Bunda bola uyda ijodiy ishlashi uchun ota-onaning yordamidan foydalanadi.

Psixologik nuqtai nazardan, boshlang'ich maktab yoshi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sezgir davrdir. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar juda qiziquvchan, hammni narsani bilishni, o'rganishni xohlaydi, ularda atrofdagi dunyo bilan tanishish istagi bor. Kattalar, qiziquvchanlikni rag'batlantirish, bolalarga bilimlarni yetkazish, ularni turli tadbirlarga jalb qilish bolalarning tajribasini kengaytirishga yordam beradi. Bolalikdan boshlab tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyatning zaruriy shartidir.

XULOSA

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish o'quv-biluv faoliyatining asosiy masalasi bo'lmoqda. Turli innovatsion texnologiya va qiziqarli o'yinlardan foydalanib darsni tashkil qilish, uni qiziqarli va mazmunli bo'lishiga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar o'quvchilarni munozara madaniyatini shakllantirishga o'z fikrini mustaqil asoslay olishiga yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilar bilim olishining asosi ekan, mazkur sinfdan boshlab o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.



Adabiyotlar:

1. Alieva E.G. Ijodiy qobiliyat va uning rivojlanish shartlari // Ta'lim faoliyatini psixologik tahlil qilish M.: IPRAN. 1991.
2. Ponomarev Ya.A. Ijodiy fikrlash psixologiyasi.- M., 1960
3. Vygotskiy L.S. Ta'lim psixologiyasi // Psixologiya: klassik asarlar. № 3. - M., 1996.
4. Azarova L.N. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining ijodiy individualligini qanday rivojlantirish kerak // Boshlang'ich maktab, 1998 yil, 4-son
5. Rasulova Z. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari o'quv jarayonlarini rivojlantirishning muhim omili sifatida. Science and Education. (2021)
6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Toshkent 2005. 320-bet.
7. Maftuna Shuhrat qizi Ziyaqulova, Feruza Abdullayevna Xayitova. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini shakllantirishda rasmlarning o'rni // Academic research in educational sciences. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/savod-o-rgatish-darslarida-o-quvchilarning-kreativ-qobiliyatini-shakllantirishda-rasmlarning-o-rni> (дата обращения: 23.02.2023).
8. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi and Feruza Hayitova Abdullayevna, "THE ROLE OF PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS CREATIVE ABILITY IN LITERACY LESSONS, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. 4, p. 3, Jul. 2021.
9. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi Enhancing creativity in the process of developing studentso speech The American Journal of Social Science and education Innovations (ISSN 2689-100x) Published Published: June 28, 2021 |



<https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03> Иссые06-24 IMPACT FACTOR 2021: 11. 857
OCLC – 1121105668 Pages: 140-143 Америка

10. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi, Rakhmatova Hamida Ismatillo qizi, “ Increasing Creativity by using Interactive methods in literacy teaching process” Analytical journal of education and development Science Box In Vol.1(2021): Analytical journal of education and development 52-54-betlar Тошкент

11. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI. M Ziyaqulova, S Ashurova, N Toshpulatova - Development and innovations in science, 2023

12. The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process ZMS Qizi - Asian Journal Of Multidimensional Research, 2021

13. BOSHLANGICH SINF OQUVCHLARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH MSQ Ziyaqulova, HIQ Raxmatova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2021